SJIF Impact Factor (2024): 8.675| ISI I.F. Value: 1.241| Journal DOI: 10.36713/epra2016 ISSN: 2455-7838(Online)
EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)
Volume: 9 | Issue: 10 | October 2024 - Peer Reviewed Journal

THE TECHNIQUE IS THE BASIS OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND BASE COMPETENCIES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS ON THE BASIS OF INTERDISCIPLINARY COMMUNICATION

Sakieva B.B.
Termez State University of Engineering and Agrotechnology-Senior Lecturer

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FANLARARO ALOQADORLIK ASOSIDA KASBIY VA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSLARI.

Sakiyeva B.B.
Termez davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti- katta o'qituvchi

ANNOTATION
This article highlights the problem of forming professional competence in students on the basis of interdisciplinary connections in education, the importance of professional competence on the basis of interdisciplinary communication in improving the educational process and improving the quality of education in Higher Education, the possibility of understanding students ' cognitive activity on the basis of general scientific ideas and methods, the formation
KEYWORDS: *competence, interdisciplinary , professional, upbringing, communication, education, cognitive activity, Polytechnic, consistency of Education*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limda fanlararo bog'lanish asosida talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish muammosi mashhur pedagoglarning tadqiqotlarida yoritilganligi, Oliy ta'limda o'quv jarayonini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirishda fanlararo aloqadorlik asosida kasbiy kompetensiyaning ahamiyati, fanlararo aloqadorlik asosida kasbiy kompetensiyani shakllantirishda talabalarning bilish faoliyatini umumiy ilmiy g'oyalar va metodlar asosida tushintirish imkonini berishi, ular fan paydo bo'lishining umumiy tamoyillarini o'rganish va ochib berilishini o'rganishi natijasida talabalaning kasbiy muxandislik qobiliyatini shakllantirishi yoritilgan.
Kalit so'zlar: kompetensiya, fanlararo, kasbiy , tarbiya, aloqadorlik, ta'lim-tarbiya, bilish faoliyati, politexnik, ta'limning izchilligi.

Bilimlarni matematikalashtirish fanlar integratsiyasini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra fanlararo boglanishni amalga oshirish uchun turdosh fanlarning o'qituvchilari bahamjihatlik bilan ishlari zarur bo'ladi. Fanlararo aloqani amalga oshirishda quyidagi asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

-Bir nechta o'quv fanlariga tegishli bo'lgan umumiy tushunchalar, atamalar va ta'riflarni bir xil qilib tanlash va tushuntirish kerak;

-Turdosh o'quv predmetlarida o'rganiladigan savollarni takroran o'rganmasdan bittasida mukammal o'rgatish lozim;

-Bir o'quv fani uchun zarur bo'lgan, lekin boshqa o'quv fanida o'rganiladigan tushunchalarni o'rganishda vaqt jihatidan ketma-ketlik to'gri tanlanishi kerak;

-Talabalarda ilmiy tushunchalarni rivojlantirishda va umumlashgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishda uzviylikni ta'minlash lozim;

-Umumiy predmetlararo kompetensiyalarni shakllantirishda yagona yondashuvni amalga oshirirsh kerak;

-Turli fanlardan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda usullarning (vositalarning) umumiyligini ko'rsatish kerak;

-Turli fanlar (fizika, kimyo, biologiya, geografiya va h.k) da organiladigan hodisalarning o'zaro bogliqligini ko'rsatish zarur.

SJIF Impact Factor (2024): 8.675| ISI I.F. Value: 1.241| Journal DOI: 10.36713/epra2016 ISSN: 2455-7838(Online)
EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)
Volume: 9 | Issue: 10 | October 2024 - Peer Reviewed Journal

Tayanch va fanga oid kompetensiyalarni fanlararo boglanishni hisobga olgan holda shakllantirilsa, samarasi yuqori bo‘ladi.
Texnika oliy ta’lim muassasalarida fanlararo aloqadorlik asosida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish fan, texnika, texnologiyalarning integratsiyasi keskin sur’atlarda oshayotgan bir vaqtda ta’lim-tarbiyada uzviylikni ta’minlash dolzarb muammo sifatida o‘rganilmoqda, bundan kutilayotgan natija, o‘qitilayotgan fanlar o‘rtasida o‘zaro aloqadorlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etish jarayoni amaliyotda o‘z tadbiqini topgan. Fanlararo aloqadorlik asosida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish muammosi pedagogikaning asosiy muammolaridan asosiysi hisoblanib ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarning o‘quv- bilish faoliyatini faollashtiradi, bilimlar sifatini oshiradi, ta’limning izchilligini ta’minlaydi, ilmiyligi, tushunarliligi, tizimliligi va mobilligini oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida fanlararo aloqadorlik asosida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish o‘quv jarayonida ta’lim sifatini oshirishning samarali usullarini izlash o‘qituvchilar, olimlar va amaliyotchilarning e’tiborini fanlararo aloqadorlik asosida talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish muammosini hal qilishga tobora ko‘proq jalb qilmoqda. Mashhur pedagoglardan I.D.Zverev, V.M.Korotov ilmiy ishlarida fanlararo aloqadorlik asosida talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish ta’lim va tarbiya birligining asosiy shartlari, ta’lim, fan tizimiga yalpi yondashish vositasi bo‘lib xizmat qilshi ishlab chiqilgan.

Ta’limda fanlararo bog‘lanish asosida talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish muammosi M.I.Aliev,A.R.Bektenyarova, G.YU.Vishnevskaya, A.A.Xomichlarning tadqiqotlarida yoritilgan Oliy ta’limda o‘quv jarayonini takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirishda fanlararo aloqadorlik asosida kasbiy kompetensiyaning ahamiyati ko‘rsatilgan.

Fanlararo bog‘lanish asosida kasbiy kompetensiyani shakllantirish muammosi uzoq o‘tmishdayoq ta’lim ishtirokchilarni qiziqtirgan. va N.K.Krupskaya, YA.A.Komenskiy kabi mohir pedagoglar tabiatning yaxlit manzarasini "talabada" aks ettirish, haqiqiy bilim tizimini yaratish va to‘g‘rlash uchun o‘quv fanlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik haqida o‘z fikrlarini bildirishgan.

YA.A.Komenskiy “Hamma narsa o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgani singari talim-tarbiyada ham fanlarni o‘zaro bog‘liklikda o‘qitilish kerakligi, buning natijasida tizimli bilimlarni shakllantirish jarayoni juda muhimdir”deb ta’kidlagan, bu bilan YA.A.Komenskiy oliy ta’limda – talabalarning aqli, ahloqi, his tuyg‘ulari va irodasini rivojlantiradigan, har tomonlama ta’lim berishi kerak degan fikrni olg‘a surgan. YAn Amos Komenskiy grammatika va falsafa, falsafa va adabiyotni, XVII asrning mashhur pedagogi esa tarix va geografiyani o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishni taklif qilgan.I.G.Pestalotsi atrofdagi voqelikni to‘g‘ri idrok etishga yordam beradigan bog‘lanish to‘g‘risida “O‘zaro bog‘langan buyumlarni tabiatdagi haqiqiy bog‘lanishida qanday bo‘lsa, shunday keltirgan” deb ta’kidlangan, ya’ni yuqori kurslarda bir fanning boshqasidan ajralib qolishi mumkin emasligi to‘g‘risida fikr yuritgan.

Bir fandan o‘zlashtirilgan bilimlar majmuasi, boshqa fanlarni o‘rganish zamirida zarurligini yoqlab chiqqan.Demak, XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida pedagog olimlar oliy ta’limda fanlararo bog‘lanishni zaruriy vazifa deb hisoblashgan. Shu davrning ilg‘or pedagoglaridan Kozereva.O.A. ta’lim oluvchilarda o‘quv fanlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarsiz tizimli va yaxlit bilimlarni va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirib bo‘lmasligini, o‘zlarining fanlariga oid muammolar bilan cheklanganligini, talabalarning aqliy rivojlanishiga e’tiborsizligini kelajakda o‘z kasbi ustida qanday ishlashi haqida qayg‘urmayotganini tanqid qiladi. talqin qilingan politexnik va umumiy ta’limning uzviy aloqasi o‘zini oqlamadi, natijada XX asrning 50 yillarigacha bu masala pedagogikada qo‘llanilmadi. XX asrning 50 yillaridan boshlab fanlararo aloqadorlik rivojlanib , o‘quv faoliyatiga qo‘llash bo‘yicha tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi.

L.S.Vigotskiy va V.Г.Plaxova tadqiqotlarida fanlardagi mavzulararo aloqalarning turli tasniflari keltirish jarayoni yoritilgan bo‘lib quyidagicha izohlanadi: birinchi tasnif vaqtinchalik mezonga asoslangan edi: dastlabki, va keyingi, istiqbolli bog‘lanishlar va boshqalar.Bunday bog‘lanishlarni amaliy jihatdan joriy etish bilimlarni tizimlashtirishga va amaliyotga bog‘lashga yordam beradi, tegishli fanlar bo‘yicha ilgari o‘tilgan materiallarga tayanish va bilimlarni o‘rganish istiqbollarni aniqlash amaliyotga qo‘llash imkonini beradi va rivojlantiradi.Е.И..Artamanova fanlararo aloqalar asosida kasbiy kompetensiyani tarkib, usul, yo‘nalish tushunchasida uchta xususiyatni va ularni amalga oshiradigan bog‘lanish turlarini ajratib ko‘rsatdi: tarkibiga ko‘ra:ob’ektlar, faktlar, tushunchalar, nazariyalar, usullar; ta’lim jarayonining mantiqiy, uslubiy texnikasi va shakllari, ular yordamida mazmundagi bog‘lanishlar amalga oshiriladi;umumiy ko‘nikma va malakalar shakllanadi.

Materiallarida aloqalar tasnifi ikki yo‘nalish asosda keltirilgan: bilim, faoliyat va amaliyotga bog‘lash turlari B.F.Skinner. Fanlararo bog‘lanishlar:birinchi holatda talabalar uchun fanidan umumlashtirilgan bilimlar tizimini; ikkinchi holatda - turdosh fanlar uchun umumiy faoliyat bo‘yicha umumiy fan malakalari tizimini yaratadi. Uchinchi holda-amaliyotga bog‘lash.Har xil turdagi bilimlar tizimlari va kasbiy kompetensiyani shakllantiradigan shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishda fanlararo aloqalarning o‘rni masalasi barcha olimlarga katta qiziqish uyg‘otadi.Fanlararo aloqadorlik asosida kasbiy kompetensiyani shakllantirishda talabalarning bilish faoliyatini umumiy ilmiy g‘oyalar va metodlar asosida tushintirish imkonini beradi. Ular fan paydo bo‘lishining umumiy tamoyillarini o‘rganish va ochib berilishini o‘rganishi natijasida talabalaning kasbiy muxandislik qobiliyatini shakllantiradi.

SJIF Impact Factor (2024): 8.675| ISI I.F. Value: 1.241| Journal DOI: 10.36713/epra2016 ISSN: 2455-7838(Online)
EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)
Volume: 9 | Issue: 10 | October 2024 - Peer Reviewed Journal

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Komenskiy YA.A.: Uchitel uchiteley(“Materinskaya shkola”, “Velikaya didaktika” i dr. Proiz.s sokrащ.).M.:Karapuz, 2009, 288 s.ISBN 978-5-8403-1480-7*
2. *Крупская Н.К. Избранные педагогические произведения. М.: Просвещение, 1965. - 673 с.*
3. *Vishnevskaya.G.YU. Realizatsiya mejpredmetnых svyazey v uchebnom protsesse obщeobrazovatelnoy shkolы i negumanitarnogo vuza (Na primere kursov russkogo i angliyskogo yazыkov) :Avtoref. …dis.kand.ped.nauk.- Karachaevsk., 2002.-15 c.*
4. *Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика-Пресс, 1999. – 536 с.*
5. *Зверев И.Д.Взаимная связь учебных предметов.- М., 1977. - 215 с*
6. *Aliev M.I.Mejpredmetnqe svyazi kak uslovie aktivizatsii uchebnoy deyatelnosti studentov.: Avtoref.... dis.kand.ped.nauk.- Tbilisi,1986.-20s*
7. *Bektenyarova A.R. Mejpredmetnые svyazi kak uslovie aktivizatsii poznavatelnoy deyatelnosti uchaщixsya.: Avtoref. … dis.kand.ped.nauk.-Alma-Aty, 1993.-25 s.*
8. *Коротов В.М. Межпредметные связи в учебно-воспитательном процессе средней общеобразовательной школы.Просвещение -М.,1977 - С. 38-42 Коротов В.М. Межпредметные связи в учебно-воспитательном процессе средней общеобразовательной школы.Просвещение -М.,1977 - С. 38-42*